

LINGVOPOETIKANING AYRIM MASALALARI

Tursunova Odinaxon Azimjanovna

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqola fonopoetikaning ayrim masalalarini yoritishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar: fonopoetika, ton, intonatsiya, to'xtam, poetik matn

Annotation: This article describes in detail the study of phonopoetic features of the text, phonetic tools, among lexical-semantic and grammatical tools, the analysis and research of phonetic units such as the polishing of sounds, accent, tone, stop.

Key words: phonetic units, stress, tone, stop, differential signs, poetic text.

Tilshunoslikda lingvopoetikaning umumiy masalalari, leksik poetika, matn poetikasi hamda fonetik stilistika, fonosemantika, fonopoetikaga bag'ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Tilshunoslik fani ham boshqa fan sohalari kabi doimo o'sib-rivojlanib boradi. Zero, har qanday fan ham davrlar o'tishi natijasida o'zida mavjud bo'lgan nazariyalarga tayanib yangi fikrlar, yo'nalishlar oqimini yuzaga keltiradi.

Poetik nutqning ta'sirchanligi ritm va musiqiy ohangda jamlanadi. Nemis olimi Y.Yanning poeziya – metrik-ritmik va tovush tuzilishiga ega ekanligini ta'kidlab: "She'r noyob hodisa, unda bir vaqtning o'zida optik komponent (matnni ko'rish orqali qabul qilish), akustika va metrika komponenti, uchala birlikning muvofiqlashuvi hissiy ifodani yuzaga keltiradi", - degan edi¹.

Aristotelning «Poetika» asarida ham ritm, ohang kabi fonetik (supersegment) birliklar haqida fikrlar bor.² Tovushlar bilan bog'liq san'atlar Shayh Ahmad ibn Xudaydod Taroziyning «Funun ul-balog'a», Vosifiyning «Badoe us-sanoe» asarlarida ham keltirilgan.

Har qanday lingvopoetik tahlilda shakl va mazmun munosabatiga jiddiy ahamiyat berish talab etiladi. Chunki har qanday badiiy matnda muayyan shakl ostida murakkab mazmun ifodalanadi. Yuza ma'no bilan birga tag ma'nolar bayon qilinadi. Natijada badiiy matnda shakl va mazmun asimmetriyasi paydo bo'ladi.

¹ Ступак Н. Фонетический компонент в образной системе поэтического произведения.// <http://www.portalus.ru/linguistics/rus>. Janning Ju. Die Rekonstruktion der Gedichtgestalt aus der Struktur von Kleang und Rhythmus.-Muttersplache?Wiesbaden, 1979. –S.242-255.

² Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. –Б. 20.

Badiiy matn tahlilida makon va zamon munosabati muhim hisoblanib, obyektga muayyan davr nuqtayi nazaridan yondashsagina, uning mohiyati, mazmuni va ifoda vositalariga munosabati obyektivlik kasb etadi. Bu masala, ayniqsa, fonetik tizimda muhimdir. Chunki “turkiy tillar tarixida fonetika eng chigal va murakkab sohadir. Buning haqiqiy (obyektiv) sabablari ham, ijtimoiy sabablari ham mavjud. Tarixiy fonetikani o‘rganishdagi qiyinchilik ham shundan iboratki, fonetika talaffuz bilan bog‘liq”³. Poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlashda tovushdan tortib sintaktik birliklargacha tahlil etish mumkin.

She’riyatning qurilish materiali ham fonetik birliklardir.

Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi soha hisoblangan lingvopoetika filologik ilmlar tizimida alohida mavqega ega bo‘lib bormoqda⁴.

Fonopoetika alohida yo‘nalish sifatida tekshirilar ekan, uning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlari sifatida poetik asarni shakllantirishi, mantiqiy va estetik, ekspressiv qimmatini oshirishi, musiqiylik, ton, tembr, ritmik intonatsiya va emotsiv jihatdan sifatligini ko‘rsatish mumkin.

Poetik matn bir vaqtning o‘zida nutqning kishilar tomonidan xohlagancha erkin talqin va ifoda etilishga sabab bo‘ladi. Bu esa germenevtika bilan bog‘liq. Germenevtikaning vazifasi matnni noto‘g‘ri tushunish va noto‘g‘ri eshitishni oldini olishdan iboratdir. Germenevtikaning vazifasi tushunish jarayonini aniq fenomenologik tahlilini berishdan iborat. Bunday talqin tahlil jarayonida matndagi muhim nuqtalarni aniqlashga imkon berishi zarur.

Sharh va tahlil ham jarayon, ham natija sifatida namoyon bo‘ladi. Sharh biror matnga murojaat etishimizdan boshlanadi. Bu germenevtikaning birinchi sharti hisoblanadi. Bu boshqacha tahlil va o‘zgacha yondashuvni ham tan olish demakdir. Matnni tushunish uchun sharhlovchi o‘zidan, o‘zining ma’lum va mavjud vaziyatdan yiroqlashishi kerak emas. Shuni ham nazarda tutish lozimki, interpretatsiya yoki tushunish davomida doim nimadir to‘la aytilmay yoki, umuman, aytilmay qolib ketishi mumkin. Ko‘p hollarda insonning hayoti, hayotning mazmuni, g‘urur, baxt, taqdir kabi hodisalar bilan bog‘liq masalalarda ko‘p narsa aytilmay qolib ketadi. Chunki ular bilan bog‘liq bo‘lgan jihatlarni ba’zan nutq ifoda eta olmaydi. Ularga aloqador his-tuyg‘ular ham ko‘p hollarda nutqda ifodalanmaydi. Matnning mazmunini tushunish davomida birlamchi tushunishning mohiyati, bu davrda mavjud bo‘lgan ijtimoiy madaniyat an‘analari, subyektning intellektual darajasi, mushohadasi va bular bilan birga, tilga bog‘liq.

³ Жумаев Т. Умар Бокий асарларининг лисоний хусусиятлари. Филол.фанлари номзоди...дисс. –Тошкент, 1997. –Б.25.

⁴ Йўлдошев М. Бадий. матн ва унинг лингвопоэтик тахлили асослари. –Тошкент: Фан, 2007. –Б.7.

Shuning uchun ham struktur tilshunoslik bag‘ridan kognitiv tilshunoslik o‘sib chiqdiki, u ko‘proq struktur tilshunoslik nazaridan chetda qolgan diskursiv tomonga tadqiqotchilar e‘tiborini jalb qildi.

Darhaqiqat, tilning “joni” diskurs sanaladi. Unda tilning ijtimoiy funksiyasi ham, kumulyativ funksiyasi ham, emotsional-ekspressiv, aksional funksiyalari ham namoyon bo‘ladi. Fonetik vositalar badiiy diskursning asosiy relevant belgisi, nutqiy go‘zallikni yaratuvchi unsuri sanaladi. Shunday ekan, muayyan tilning emotsional-estetik vazifasini o‘rganuvchi lingvopoetikaning shu kungacha ko‘proq mutaxassislar e‘tiborini tortgan leksik poetika qismigina emas, balki fonopoetika, morfopoetika va sintaktik poetika qismlari ham jiddiy tadqiqotlar obyektiga aylanmog‘i lozim. Emotsional-ekspressivlikni ta‘minlovchi maxsus ekspressemalar mavjud bo‘lib, u tonema, sillabema, ohangdoshlik singari vositalarni o‘z ichiga oladi. Ekspressemalar nutq tarkibida so‘zlovchining emotsional holatlari (quvonch, qahr-g‘azab, do‘q-po‘pisa va boshqalar) ni bildirish, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turini farqlash, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-ho‘latlarning mazmuniy gradatsiyasini kabilar ifodalanadi, badiiy-estetik vazifa bajarish uchun xizmat qiladi.